

**PSIXOKORREKSION RIVOJLANTIRUVCHI MASHG'ULOTLAR  
VA ULARNI O'TKAZISH USULLARI**

*Xo'rozova Dilfuza Qaxramonovna*

*Samarqand viloyati Jomboy tumani 17-maktab psixologi*

*Sodiqova Baxtigul Xudoyberdiyevna*

*Samarqand viloyati Jomboy tumani 10-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada psixokorreksiya uning turlari, psixokorreksion ishlarni amalga oshirish mexanizmlari va bu borada maktab psixologlari oldiga qoyilgan vazifalar hamda psixokorreksion ishlarni amalga oshirishda qo'llash mumkin bo'lgan interfaol metodlarning ayrim turlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Psixokorreksiya, psixologik yordam, interfaol ta'lim, interfaol metod, "Kutuvlar daraxti", "Diqqatni jamla" metodlari.

Psixologik tuzatish (psixokorreksiya) — psixologik yordam turlaridan biri (boshqalar qatorida: psixologik maslahat, psixologik trening, psixoterapiya); psixologik rivojlanishning optimal modelga mos kelmaydigan xususiyatlarini maxsus psixologik ta'sir vositalari yordamida tuzatishga qaratilgan faoliyat; shuningdek — insonda uning ijtimoiylashuvi va o'zgaruvchan turmush sharoitlariga moslashishini oshirish uchun zarur psixologik fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat. Ushbu atama 1970-yillarning boshlarida mashhur bo'ldi. Bu vaqtda psixologlar psixoterapiya, birinchi navbatda, guruh terapiyasi sohasida intensiv ishlay boshladilar. Ko'p yillar davomida psixologning psixoterapevtik ish bilan shug'ullanishi mumkinligi haqida faol munozaralar bo'lib o'tdi, ammo ular ko'pincha nazariy xususiyatga ega edi. Amalda, psixologlar ko'pincha psixoterapevtik faoliyat bilan shug'ullanishadi. Shuning uchun „psixologik tuzatish“ atamasining paydo bo'lishi asosan psixoterapevt va psixologning vakolatlarini chegaralashga qaratilgan edi. Bugungi kunga qadar „psixoterapiya“ va „psixokorreksiya“ atamalari o'rtasida aniq farq yo'q.

Psixokorreksion va rivojlantiruvchi ishlar bolalarning psixologik muammolarini hal qilishga va ularning rivojlanishiga yordam berishga qaratilgan. Ushbu ishlar interaktiv usullar yordamida olib borilganda yanada samarali bo'ladi. Xo'sh interaktiv usullar o'zi nimalardan iborat?

Interaktiv ta'lim - faol o'qitish uslubining turlaridan biri. Interaktiv o'rganish bilan o'zaro munosabat nafaqat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida, balki barcha tinglovchilar bilan aloqa qilish va birgalikda ishlash (yoki guruhlar) o'rtasida amalga oshiriladi. Interaktiv ta'lim usullari har doim shovqin, hamkorlik, qidirish, muloqot, odamlar yoki odamlar o'rtasidagi o'yin va axborot muhiti hisoblanadi. O'qituvchining

mashg'ulotlarda faol va interaktiv usullarini qo'llash orqali o'qituvchi tomonidan o'rganilgan materialning miqdori 90 foizga etadi.

Interaktiv ta'limning psixologik va pedagogik shartlari

Muvaffaqiyatli ta'lim olish uchun ta'lim muassasasining vazifasi - shaxsning maksimal muvaffaqiyatga erishish uchun sharoit yaratish. Interaktiv ta'limni amalga oshirish uchun psixologik va pedagogik shartlar quyidagilardan iborat:

- trening ishtirokchilarining ushbu ta'lim turi uchun tayyorligi, zarur bilim va ko'nikmalar mavjudligi;
- sinfda ijobiy psixologik muhit, bir-biriga yordam berish istagi;
- tashabbusni rag'batlantirish;
- har bir talabaga individual yondashuv;
- barcha kerakli o'quv muassasalarining mavjudligi.

Psixokorreksion ishlar bolaning xatti-harakatlaridagi, emotsional holatidagi va shaxsiyatidagi muammolarni aniqlash va ularni tuzatishga qaratilgan. Bu muammolar orasida qo'rquvlar, agressiya, giperaktivlik, diqqat yetishmasligi, o'ziga ishonchsizlik va boshqalar bo'lishi mumkin.

Psixokorreksion ishlarda qanday interaktiv usullardan foydalanish mumkin?

“Kutuvlar daraxti” metodi.

Daraxt rasmi kerak bo'ladi. (Dokaga chizib qo'yish ham mumkin) O'quvchiga stikerlar berib chiqasiz.(Imkon qadar oq va qora rangli bo'lishi maqsadga muvofiq) O'quvchidan uning hayotidagi quvonchli damlari(oq stikerga) va qanday muammolar qiynayotganini(qora stikerga) yozishini so'rang. O'quvchi qo'lidagi stikerchalarga quvonchli kunlarini va uni qiynayotgan muammolarni yozib chiqadi. O'ylash uchun vaqt bering va biroz yolg'iz qoldiring. Belgilangan vaqt tugab, hammadan stikerlarni terib chiqasiz va “Kutuvlar daraxti”ingizga yopishtirib qo'yasiz.

“Kutuvlar daraxti” metodining afzalliklari:

Bu metoddagi rangli stikerlar tortinchoq, gapirmaydigan bolaning fikrlarini yozma nutq orqali yetkazib beradi.

Yozma nutq oshadi.

Oq va qora ranglar orqali bolani hayotida uni qiynayotgan muammolar ko'pmi yoki quvonchli damlarimi, shuni aniqlash osonlashadi.

Ushbu metod orqali bola ruhiyatidagi muammolarni tez aniqlab, qaysi yo'nalish bo'yicha psixologik yordam berish kerakligini aniqlash mumkin.

“Diqqatni jamlab” metodi.

O'quvchilarga shar beriladi va sharni yerga tushirmagan holatda javob berishlari kerak. Shar har safar qo'llariga tushganda bitta so'z aytishadi.

Bu o'yin diqqatni jamlab, bolalarda ziyraklikni oshirar ekan. Miyalari har tomonlama ishlashga majbur bo'ladi.

Qolaversa, qiziqarli atmosfera hosil qilinadi.

O`quvchi foydalanayotgan so`zlarga e`tibor beramiz. Bola qanchalik ijobiy ma`nodagi so`zlardan foydalansa, demak uning psixologik holati yaxshi. Aksincha bo`lsa, demak, bu o`quvchi bilan qo`shimcha ishlash kerak bo`ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Usmonova “Qiziqarli metodlar lamlanmasi”. T. 2023
- 2.Elov Z.S. O`smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta`siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-447
- 3.Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O`quv-metodik qo`llanma. 2021. Buxoro 1-164.
- 4.Elov, Z. S. (2016). Researches of the Reasons Conditions. Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive, 5(1), 49-53.
- 5.Elov, Z. S. (2022). O`smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta`siri. Science and Education, 3(3), 442-447.
- 6.EZ Sattarovich. CONDITIONS AND THE REASONS OF CASES OF THE SUICIDE AMONG THE STAFF OF LAW-ENFORCEMENT BODIES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 (3) 2017
- 7.Furqatovich, U. F., & Sattarovich, E. Z. (2022). SUICIDE–AS A GLOBAL PROBLEM FACING HUMANITY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 349-354.
- 8.Jo`Rayeva, Z. A., & Maxmudova, Z. M. (2022). Sudga oid psixologik ekspertizani tashkil qilish va uni o`tkazishning o`ziga xosligi. Science and Education, 3(4), 1916-1922.
9. Olimov L.Ya, Avezov O.R., Baratov Sh. R. Psixologiya nazariyasi va tarixi (o`quv qo`llanma) <https://library.sammi.uz/Library/> 1 (1), Ўзбекистон